

**ORIENTAL JOURNAL OF PHILOLOGY**

journal homepage:

<http://www.supportscience.uz/index.php/ojp/about>**LINGUISTIC-SEMANTIC FEATURES OF ETHNOTOPONYMS RELATED TO THE ETHNONYM "QO'NG'IROT"****Nargis Shodiyevna Kurbanazarova***Associate Professor at Termiz State University, Doctor of Philological Sciences
Termiz, Uzbekistan***ABOUT ARTICLE****Key words:** Termez history, ethnonyms, ethnotoponyms, Uzbek linguistics, toponymy, ancient Central Asia, historical sources, linguistics, culture, Turkic languages, regional toponyms, dialectology, historical geography.**Received:** 21.03.25**Accepted:** 23.03.25**Published:** 25.03.25**Abstract:** This study examines Tamim Ansary's "Destiny Disrupted," focusing on the narrative strategies and identity construction through the lens of cultural hybridity. Ansary employs storytelling, juxtaposition of Islamic and Western narratives, and personal anecdotes to challenge monolithic perceptions of identity. By highlighting the complexities of cultural interactions, he illustrates the fluidity of identity shaped by historical contexts. This analysis reveals how Ansary's work fosters empathy and understanding, encouraging readers to reconsider their own identities in a globalized world. Ultimately, "Destiny Disrupted" serves as a vital contribution to discussions on cultural hybridity and postcolonial thought.**QO'NG'IROT ETNONIMI BILAN BOG'LIQ ETNOTOPONIMLARNING LEKSIK-SEMANTIK XUSUSIYATLARI****Nargis Shodiyevna Kurbanazarova***Termiz davlat universiteti dotsenti, f.f.f.d
Termiz, O'zbekiston***MAQOLA HAQIDA****Kalit so'zlar:** Termiz tarixi, etnonimlar, etnotoponimlar, o'zbek tilshunosligi, toponimiya, qadimiy O'rta Osiyo, tarixiy manbalar, lingvistika, madaniyat, turkiy tillar, hududiy toponimlar, dialektologiya, tarixiy geografiya.**Annotatsiya:** Ushbu tadqiqot Qo'ng'iro't etnonimi bilan bog'liq etnotoponimlarning leksik-semantik xususiyatlarini o'rganadi. Mazkur toponimlarning Qo'ng'iro't xalqining madaniy, tarixiy va lingvistik o'zligini aks ettirishi tahlil qilinadi. Tadqiqot etnotoponimlarning tuzilishi va ma'no jihatlariga e'tibor qaratib, ularning etnonimning ijtimoiy va geografik kontekstiga bog'liqligini ochib beradi. Bu tahlil til, millat

va mintaqaviy o'zlik o'rtasidagi munosabatlarni chuqurroq anglashga xizmat qiladi.

ЛЕКСИКО-СЕМАНТИЧЕСКИЕ ОСОБЕННОСТИ ЭТНОТОПОНИМОВ, СВЯЗАННЫХ С ЭТНОНИМОМ “ҚОНГИРОТ”

Наргис Шодиевна Курбаназарова

*Доцент Термезский государственный университета, доктор филологических наук
Термез, Узбекистан*

О СТАТЬЕ

Ключевые слова: История Термеза, этнонимы, этнотопонимы, узбекская лингвистика, топонимия, древняя Центральная Азия, исторические источники, лингвистика, культура, тюркские языки, региональные топонимы, диалектология, историческая география.

Аннотация: Данное исследование посвящено лексико-семантическим особенностям этнотопонимов, связанных с этнонимом Qo'ng'iro't. Анализируется, как эти географические названия отражают культурную, историческую и лингвистическую идентичность народа Qo'ng'iro't. В исследовании особое внимание уделяется структуре и смысловым характеристикам этнотопонимов, показывая их связь с социальным и географическим контекстом этнонима. Такой анализ способствует более глубокому пониманию взаимосвязи языка, этничности и региональной идентичности.

Mamlakatimizdagi har bir shaharning o'z tarixiy o'tmishi hamda o'ziga xos an'analari bor va ushbu tarix bir butun holda Vatan tarixini tashkil etadi. Har bir shahar, katta-kichikligidan qat'iy nazar, o'ziga xos tarixiy o'tmishi bilan vatanimiz tarixiga muhim hissa qo'shadi, tariximiz sahifalarini to'ldiradi. O'tmishning o'ta sirli, sehrli voqealariga guvoh bo'lgan Termiz shahrining ham tarixiy kechmishi vatanimiz tarixining ajralmas bir bo'lagini tashkil etadi. Tarixiy manbalarda shaharning o'ziga xos qirralari ma'lum ma'noda aks ettirilgan. Termizning eng ko'hna nomi qadimiy manbalarda Taramaeta tarzida tilga olinadi. Taramaeta, Taromaeta (Taro-Maeta) bora-bora Taramata (Tara-Mata)ga aylanib, undan asta-sekin Tarmat (Tarmad) tarziga o'tadi va nihoyat hozirgi Tarmiz – Tirmiz – Termiz shaklini oladi[1].

Nomlar, xususan, joy nomlari urug'-qabila nomlari bilan bog'liq ma'lumotlarni chuqur o'rganish, ularni umumlashtirish, taksonomiyaga solish va kerakli xulosalar chiqarish masalasi bilan olimlar qadim zamonlardan buyon qiziqib kelganlar. Qadimiy yozma manbalarga qaraganda, miloddan oldingi ming yillik o'rtalarida O'rta Osiyo hududida Xorazm, Sug'd, Baqtriya, Parfiya kabi joy nomlari borligi va bu yerlarda yashovchi xalqlar skiflar, saklar, massagetlar deb atalganligi haqidagi ma'lumotlar qadimgi yunon tarixchilari Geradot, Torg Pompey, Ksenofont, Ktesiy, Arrian, Strabonlar tomonidan yozilgan manbalarda aks etgan[2].

O'zbek tili qadimiy urug' va qabilalarning, qabila uyushmalari, tarmoqlari nomlariga nihoyatda boy bo'lib, tilimizda bugungi kunda ham saqlanib qolgan etnonimlarni to'plash va tadqiq qilish buni yorqin ifodalaydi. Etnonimlar o'zbek tili leksik qatlamining qadimiy qatlamiga mansub bo'lib, ko'pgina etnonimlarning ma'no va etimologiyasi, nomlashi davrlar o'tishi bilan o'zgargan va ayrimlari unutilgan. Tadqiqotimizning avvalgi o'rinlarida aytib o'tganimizdek, onomastik tizimdagi barcha atoqli nomlar xalqning tarixi va milliy madaniyati bilan bevosita bog'liq bo'ladi. Etnonimlar ifodalagan mazmun bilan bevosita bog'liq holda etnotoponimlar ham bu o'rinda ahamiyatlidir. Etnotoponimlarni tadqiq qilish lingvistik mohiyatga ega ikkitta mustaqil onimning o'ziga xos jixatlarini ochish imkoniyatini yaratadi. Shuning uchun, etnonimlar va etnotoponimlarni to'plab, tadqiq etish o'zbek tilidagi atoqli otlar tizimining shakllanish bosqichlari xususida qimmatli ma'lumotlar beribgina qolmay, xalqimiz tarixi, urf-odatlar, turmush tarzi, o'lkamiz jug'rofiyasi va arxeologiyasi, shuningdek, ma'naviyatimiz sarchashmalari haqida keng qamrovli izlanishlar olib borishga asos bo'la oladi. Etnotoponim materiallarini alohida olingan hududlar bo'yicha to'plash va o'rganish esa, ushbu masalaning mohiyatiga yanada chuqurroq kirib borish hamda mintaqaviy-lisoniy hodisalar tizimining o'ziga xos qonuniyatlari va xususiyatlarini ochishga ko'maklashadi[3].

Tilimizda mavjud ko'pchilik etnotoponimlarning bugungi kundacha ham etimologiyasi aniqlanmagan. Chunki ular asos bo'lgan etnonimlarning tarixi va kelib chiqishi aniq xulosalar bilan isbotlanmagan. Demak, etnotoponimlarni tahlil qilish, albatta, etnonimlar bo'yicha bilimlarni talab qiladi. Tadqiqotimizda etnotoponimlar bo'yicha alohida tahlillarni amalga oshirish, har ikkala onomastik birlikni o'rganish, shuningdek, mazkur nomlar oid bo'lgan til, uning lahjalari bilan bog'liq ham ma'lumotlar taqdim eta oladi deb hisoblaymiz.

Tyumen viloyati janubidagi rus toponimiyasidagi turkiy etnonimlarni tahlil qilgan M.A.Sagidullin toponimik obyektlarni etnonim va til masalasi bilan bog'liq deb hisoblab, quyidagicha xulosaga kelgan: "toponimik materiallardan biz aniqlagan etnonimlarning etnogenetik o'zaro bog'liqligi, xususan, tillari u yoki bu kichik til guruhiga mansub turkiy etnik guruhlarga tegishli etnonimlarning ustunligidan kelib chiqib, etnonim toponimlarni hududlarga taqsimlash imkonini berdi. O'rganilayotgan hududning g'arbiy qismi turkiy tillarning qipchoq-no'g'ay kichik guruhiga (qozoqlar, qoraqalpoqlar, no'g'aylar) kiruvchi xalqlarning etnonimik tizimida mavjud etnonimlarga asoslangan ko'p sonli toponimlar bilan ifodalanadi. Sharqda - tillari qirg'iz-qipchoq kichik guruhiga (qirg'iz, oltoylar) tegishli bo'lgan xalqlarning etnonimlari ustunlik qiladi. Yarkovskiy tumanida turkiy tillarning o'g'uz-turkman kichik guruhiga kiruvchi xalqlar etnonimlari ustunlik qiladi. Bunday hududlarni aniqlash Sibir tatarlarining etnodialekt guruhlari tilining tabiati haqidagi farazlarni tasdiqlash yoki tuzatish uchun yoki ushbu etnik guruhning tili va madaniyatidagi dialektal farqlarning tabiatini aniqlash uchun muhimdir"[4].

Ko‘rinadiki, toponim va etnonimlar etimologiyasi tilga oid bo‘lgan dialektal va areal jihatlar bilan bevosita bog‘liq. Shuning barobarida, tarix, geografiya, sotsiologiya fanlari uchun ham muhim materiallar taqdim etadi.

Turkiylarni o‘rganuvchi ko‘chmanchi chorvadorlar, tarixchilar va etnograflar orasida geografik obyektlarni ko‘rsatish tamoyili yaylovlardan foydalanish tartibi bilan bog‘liq o‘ziga xos xususiyatlarga ega bo‘lgan. Yaylovlar qadimgi urug‘lar va ularning bo‘linmalari o‘rtasida taqsimlangan. Shu bilan birga, yerdan qarz olib foydalanish amalda bo‘lgan hududlarda, yer egalarining yaylovlaridan pul evaziga foydalanilgan. Shundan kelib chiqib, muayyan hududdan foydalanish huquqini tasdiqlab, tegishli urug‘ yoki undan kichikroq guruh shu yerlarga o‘z nomini berishi mumkin bo‘lgan. Yuqoridagi fikrlardan so‘ng turkiy muhitda geografik obyektlarning nominatsiyasi tamoyili mantiqan aniq bo‘ladi[5].

Surxondaryo viloyati hududida bir qancha toponimik obyektlar qo‘ng‘irot etnonimi va uning tarkibiga kiruvchi boshqa shaxobchalar nomlari bilan bog‘liq. Etnotoponimlar qaysi jihat yoki belgisiga ko‘ra etnonimlarga bog‘liqligi borasida gap ketar ekan, asosan, etnonim nomlayotgan urug‘-qabila yoki xalq yashagan hudud degan qarash ustuvorlik qiladi. Bu borada tilshunos olimlarning fikricha, etnotoponimlar tilda tasodifiy holatda emas, balki til taraqqiyoti qonunlari asosida ma‘lum bir motivlarga tayangan holda hosil bo‘ladi. Etnotoponimlar o‘z tarkibida etnonimlarning o‘ziga xos xarakterli xususiyatlarini, daliliy materiallarini mujassamlantiruvchi boy lingvistik, etnografik va tarixiy manba sifatida ham qimmatlidir[6].

Tahlillarimiz natijasida kelgan xulosalarimizga ko‘ra, Surxondaryo hududida joylashgan etnotoponimlarni atalish motivi jihatidan quyidagi guruhlarga ajratish mumkin:

1. Tarkibi urug‘ va qabila nomlari asosida shakllangan etnotoponimlar: qo‘ng‘irot (MFY, ko‘cha), qatag‘on (qishloq)
2. Xalq va millat nomlari asosida shakllangan etnotoponimlar: tojikqishloq, arabqishloq, turkmanko‘cha.

Etnotoponimlarning ilmiy tadqiqi bunday nomlar asosida yotgan lug‘aviy birliklarning ma‘no mohiyatini to‘g‘ri anglashga ham yordam beradi. Bizning tadqiqotimiz uchun obyekt bo‘lgan qo‘ng‘irot etnonimining o‘zi bilan hududdagi bir qancha ko‘cha, mahalla, qishloq va shaharchalar nomlanadi. Misol uchun, qo‘ng‘irot etnonimining o‘zi bilan nomlangan bir qator toponimik obyektlar mavjud. Xususan, oykonim (oykonim – yunoncha biror aholi hududining nomi) sifatida Boysun tumani hududida joylashgan qishloq nomi. Termiz tumanidagi mahallalardan biri ham aynan shunday nomlanadi.

Joy nomlari tarkibidagi toponimik obyektlardan yana biri urbanonimlardir. Urbanonim – shahar yoki qishloq hududida joylashgan biror topografik obyekt nomi. Qo‘ng‘irot etnonimi bilan ataluvchi bir qancha urbanonimlar – ko‘cha nomlari Surxondaryo viloyatida joylashgan ko‘plab

tumanlarda mavjud. Vohaning Denov, Sherobod, Sariosiyo, Sho'rchi, Qiziriq, Jarqo'rg'on kabi tumanlarida qo'ng'irotnomli ko'chalar mavjud.

Qiziriq tumani hududida qo'ng'irotnomli qabriston ham mavjud. Onomastik terminlar orasida bunday obyektlar nekronimlar deb yuritiladi. Ya'ni, nekronim – marhum insonlarning nomini kelajak avlodga yodgorlik, xotirlash maqsadida atab qo'yish, shuningdek, qabr, dafn marosimi uyushtiriladigan joy nomlari. Tilshunos olimlar B.Yo'ldoshev, A.Aslonovlar esa quyidagicha ta'rif beradi va: “qabrlar, qabristonlar (mazorlar, mazoriistonlar), shuningdek, ba'zi diniy obyektlar nomi (masjid, madrasa, honaqa kabilar)ni tushunish maqsadga muvofiqdir”, deb ta'kidlaydi. Biroq M.V.Mayyorov fikriga ko'ra, nekronimni qishloq qabristoniga yaqin hududda yoxud qabriston hududiga qo'shib ketgan ibodatxonalar, shuningdek, qabrlar va qabristonlarni ifodalovchi nekrotoponimlardan farqlash zarur, negaki nekronim so'zining tushunchaviy ko'lami qabrlar, qabristonlar, shuningdek ba'zi diniy obyektlar nomi (masjid, madrasa, honaqa kabilar)ni atovchi nekrotoponimlardan ancha keng. Nekronim ostida qabr toshlari, qabr usti yodgorliklarini tushunish maqsadga muvofiq, chunki nekronim semantikasida ma'lum geografik hududga tegishlilik belgisi mavjud emas[7].

Bundan tashqari Surxondaryo hududida yana bir qancha toponimik obyektlar qo'ng'irotnomining tarkibidagi kichik bo'linmalar nomlari asosida paydo bo'lgan. Bunday joy nomlari shu urug' va urug' shahobchalarining yashaganligini yoki mazkur joy ularga qarashlilikini ko'rsatadi. O'rganishlarimiz shuni ko'rsatdiki, qo'ng'irotnom urug'i tarkibidagi etnonimlar bilan nomlangan etnotoponimlarning asosiy qismi tamg'a-belgi asosida yuzaga kelgan. Misol uchun, Surxondaryo hududidagi quyidagi joy nomlarini qo'ng'irotnom va uning tarkibidagi aynan tamg'a nomi bilan bog'liq etnonimlar asosida hosil bo'lgan, deb hisoblashimiz mumkin:

Qoraqasmoq – Surxondaryo viloyati Bandixon tumaniga qarashli joy nomi. Qo'ng'irotlarning qo'shtamg'ali bo'limidagi 16 urug'ning biri bo'lgan etnonim. Mazkur etnotoponimning nomlanishiga ko'rsatilgan urug' vakillari yashaganligi asos bo'lgan, deb hisoblanadi.

Ochamayli – Qumqo'rg'on tumanidagi joy nomi bo'lib, ochamayli etnonimi asosida shakllangan. Qo'ng'irotlarning vaxtamg'ali bo'limi tarkibidagi urug'lardan hisoblanadi va achamayli, achimayli, ochamayli, ochamoyli shakllarda uchraydi.

Qoraqalpoqlarda ashamayli deb ataladi. S.Qorayevning izohlashicha, ho'kiz yoki qo'tosga uriladigan egar, yoki bolalar minishi uchun mo'ljallangan egar ochamay (achamay) deyilgan. Achamayli (ochamayli) “egarli”, “tamg'asi egar shaklidagi urug'” demakdir[8]. Boshqa bir ma'lumotga ko'ra, mazkur urug'ning tamg'asi tuyaning egari shaklida bo'lgan. Mazkur urug' o'zbeklar bilan birga qozoqlarda va qoraqalpoqlarda ham mavjud. Qozoqlarda ochamayli urug'i uy qurishda juda usta bo'lganligi uchun uyshi deb ham ataladi[9].

Cho'michli – Sherobod tumanidagi mahalla. Mazkur etnonim Surxondaryo qo'ng'irotlarining vaxtamg'ali tarmog'iga oid urug'ning nomi hisoblanadi. Mazkur urug' belgi – tamg'a asosida shakllangan deb hisoblanadi. Etnonimdan toponim hosil bo'lgan. Ma'lumot uchun, Surxondaryodagi mashhur Imom at Termiziy ziyoratgohi aynan shu – Cho'michli mahallasida joylashgan.

Taroqli (talaffuzda ko'pincha toraqli, toroqli shakli qo'llaniladi) – Sherobod tumanidagi ergonim. Ergonim – ish, kasb-hunar, muayyan faoliyat doirasida birlashgan kishilik jamiyatining ittifoq, tashkilot, muassasa, uyushma, korporatsiya, to'garak shaklidagi nomlar. Sherobod hududida joylashgan guzar nomi aynan shunday nomlanadi. Mazkur etnonim ham qo'ng'irotlarning vaxtamg'ali tarmog'iga mansub urug' nomini ifodalab, tamg'a asosida shakllangan etnonim sifatida baholanadi (tadqiqotimizning avvalgi o'rinlaridagi ma'lumotlarimizda aytib o'tganimizdek, tarkibida -li affiksi mavjud bo'lgan etnonimlar belgi – tamg'a shakliga ko'ra nomlangan etnonimlar hisoblanadi).

Ko'rto'g'ay – Qumqo'rg'on tumanidagi joy, paxta maydoni. Onomastikaning tarkibiy qismi hisoblangan agroonim sifatida e'tirof etish mumkin. Agroonim – yer maydoni, shudgor, dala nomlari. Ko'rto'g'ay – Surxon vohasida yashovchi qo'ng'irotlarning qonjig'ali bo'limi tarkibidagi urug'. Etnonim asosida joy nomi kelib chiqqan.

Oyinli – Sherobod tumanida joylashgan MFY. Oyinli etnonimi qo'ng'irotni urug'i tarkibidagi beshta bosh tarmoqlardan biri. Tamg'a shakliga asoslangan etnonim hisoblanib, oyli (oyga ega) ma'nosini bildiradi.

Tortuli – Sariosiyo tumaniga qarashli MFY. Mazkur toponim ham etnonimga asoslangan bo'lib, tortuvli qo'ng'irotni urug'i tarkibidagi beshta katta tarmoqdan birining nomi. Toponim sifatida ifodalanganda fonetik o'zgarishga uchragan shakli ko'zga tashlanadi. Ya'ni, tortuvli etnonimi tarkibidagi v tovushi tushirib qoldirilgan. Mazkur etnonim etimologiyasi bilan bog'liq ma'lumotlar tadqiqot ishimizning oldingi boblarida to'liq yoritilgan.

Gilambob – Qiziriq tumanidagi MFY. Qo'ng'irotni urug'i qo'shtamg'ali bo'limining qoraqasmoq tarmog'iga oid urug'. Etnonim gilambof shaklida mavjud. toponim sifatida qo'llanilganda fonetik o'zgarishga – tovush almashinish hodisasiga uchragan. Ya'ni, f tovushi b ga almashgan. Hududda yashovchi aholining bergan ma'lumotlariga ko'ra mahallada yashagan tub aholi qo'ng'irotlar bo'lgan va gilamchilik – gilam to'qish, ranglash bilan shug'ullanganlar. Mazkur etnonim urug'ning bajaradigan mashg'ulotiga ko'ra nomlangan. Shunga ko'ra mazkur joy nomini etnonimga asoslangan etnotoponim sifatida ko'rsatish mumkin.

Qo'ldovli – Jarqo'rg'on hududida joylashgan MFY. Mazkur etnonim etimologiyasi bilan bog'liq tahlillar tadqiqotimizning oldingi fasllarida batafsil berilgan.

Qoraqursoq – Jarqo‘rg‘ondagi MFY Qorag‘ursoq – Qorag‘ursoqshox. Qo‘ng‘irotlarning qonjig‘ali bo‘limi tarkibidagi etnonimlardan biri. Tadqiqotchilarning ma‘lumotlariga ko‘ra, qarsaq – mo‘ynali hayvon, cho‘l tulkisi. Qozoq, qirg‘iz (qursag‘ shaklida) va o‘zbek tillarida tulkinging bir turi sifatida qo‘llaniladi. O‘zbek xalq dostonlarida tulki, qarsaq birikmalari bor. Qarsaq – totem, muqaddas hayvon. Etnonimga shu asos bo‘lgan, deb hisoblanadi.

Boymoqli – Jarqo‘rg‘on MFY. Qo‘ng‘irot urug‘ining vaxtamg‘ali tarmog‘i tarkibidagi urug‘ nomi – etnonim.

Baymoqli – qang‘li, qo‘ng‘irot va qoraqalpoqlar tarkibidagi urug‘. Tarixchi olim I.Umarov mazkur urug‘ning nomlanish tarixi bilan bog‘liq ma‘lumotlarni keltirar ekan quyidagi cha yozadi: Mazkur urug‘ning shakllanishi haqida hozircha hech qanday ma‘lumot yuq. Ayrim tadqiqotchilar baymoq so‘zini boyboq ya‘ni kemiruvchi hayvon nomidan olinganligini taxmin qilishadi-yu, lekin uni hech qanday dalil bilan asoslashmaydi. Aytishimiz joizki, Ko‘hitang xattakilarida ham baymoqli urug‘i mavjud. Lekin ularning qo‘ng‘irot, qang‘li yoki qoraqalpolarga hech qanday aloqasi yo‘q. Ular o‘zlarining kelib chiqishini XVIII asrda yashagan Baymoq ismli odamga olib borib taqashadi.

Taniqli o‘lkashunos olim Shoniyoz Safarovning Xattak qishlog‘ilik Olloqul Fayzullaevdan yozib olgan ma‘lumotlari ko‘ra, Samarqand hokimi bir kuni qur‘achini chaqirib, “bu yil qanday o‘tadi” deb so‘raganida, qur‘achi unga bu yil bir ug‘il tug‘ilishini, u yetti yoshga kirgandan so‘ng podshoni ag‘darib o‘rniga o‘zi o‘tirishini aytadi. Shunda Samarkand podshosi davlatdagi barcha homilador ayollarning fro‘yxatini olish hamda ularni podsholikka keltirish to‘g‘risida farmon beradi. Odamlarni chalg‘itish maqsadida “homilador ayollarga podsholikdan pul beriladi” deb aytiladi. Shu tariqa barcha homilador ayollar saroyga yig‘ib kelinadi. So‘ngra ularning qorniga buroq solinadi. Ayollarning ko‘pchiligi kuchli og‘riqdan o‘lib qolishadi. Ko‘pchiligi bola tashlaydi. Ayrimlarining bolalari o‘lik holda tug‘iladi. Tirik tug‘ilganlari esa umrbod majruh bo‘lib qolishadi. Majruh bo‘lib qolgan bolalarning ayrimlari tovonsiz edi. Turli ishlar bilan Samarqandga kelgan xattaklik Xulqali boboning katta o‘g‘li ham onasining qorniga buroq solinishi natijasida tovonsiz tug‘iladi. Mudhish voqeadan g‘azablangan, ammo hech narsa qilolmagan odamlar norozi bo‘lib, turli o‘lkalar tomon ko‘chib ketishadi. Ular qatori Xulqali bobo ham ketib, ota yurtiga qaytadi. Katta o‘g‘li tovonsiz tug‘ilganligi uchun unga Baymoq (yani tovonsiz) deb ism qo‘yishadi. Ana shu boladan tarqalgan avlod baymoqlar deb ataldi. Tarixning guvohlik berishicha, XVIII asrning 20-30 yillarida, yani Movarounnaxrda o‘zaro feodal urushlari avjiga chiqqan davrda Samarqand mustaqil davlatga aylangan. Uni Xorazm xonlari avlodidan bo‘lgan Rajab Sulton va Shahrisabz hokimi Ibrozhimbiy kenagaslar boshqargan. Samarkand davlati shu davrda Buxoro xonligi bilan tez-tez urushlar olib borgan. Shundan kelib chiqib buroq solish voqeasi XVIII asr 20-30 yillarida sodir bo‘lgan deyishimiz mumkin. Tovonsiz tug‘ilgan

bolalar nafaqat xattakilarda, balki boshqa urug'larda ham bo'lgan. Shu bois ulardan tarqalgan avlodlar baymoqlilar deb atalgan[10].

Bu borada bizning fikrimiz, o'rganishlarimiz natijasiga ko'ra tarixiy rivoyatdan sal farqlanadi. Ya'ni boymoqli – totemistik tasavvurlar natijasida yuzaga kelgan etnonim bo'lib, totem asosiga ko'ra nomlangan tamg'a bilan bog'liq. Boymoq Boysun qo'ng'irotlarining nutqida kuchli, tezkor hayvon nomini bildiradi (ko'proq kekxa avlod vakillari nutqida foydalaniladi va tarixiy aytimlarda uchraydi). Bizningcha, shu hayvon totem sifatida tanlanib, qo'ng'irotlar tarkibidagi boshqa ko'plab etnonimlar kabi tamg'a shakli bilan bog'langan bo'lishi mumkin. Boymoqli tarkibidagi -li qo'shimchasi esa, tamg'ali so'zining qisqartma shakli ekanligi ham fikrimizga asos bola oladi.

O'rganishlarimiz natijasida Surxondaryo hududida joylashgan qo'ng'irot urug'i va uning tarkibidagi etnonimlar bilan bog'liq etnotoponimlarni semantik jihatdan quyidagicha tasniflashni lozim topdik:

Tamg'a nomi bilan bog'liq etnonimlarga asoslangan etnotoponimlar: oyinli, cho'michli, taroqli;

Rang bilan bog'liq etnonimlarga asoslangan etnotoponimlar: qoraqasmoq;

Inson tana a'zosi bilan bog'liq etnonimlarga asoslangan etnotoponimlar: qo'ldovli;

Insonning tashqi ko'rinishi va o'ziga xos belgisi bilan bog'liq etnonimlarga asoslangan etnotoponimlar: boymoqli;

Narsa-predmet nomi bilan bog'liq etnonimlarga asoslangan etnotoponimlar: gilambob;

Totemistik qarashlar bilan bog'liq etnonimlarga asoslangan etnotoponimlar: qoraqursoq;

Umuman olganda, Surxondaryo viloyati hududida joylashgan joy nomlari orasida etnonimlarga asoslanganlari ko'pchilikni tashkil etadi. Qo'ng'irot urug'i va uning tarkibidagi etnonimlar bilan bog'liq etnotoponimlar, asosan, biror bir urug'ning yashagan joyi, manzilgohini nomlash uchun toponimga qo'yilgan. O'rganishlarimiz belgilangan hududda yashagan yoki hozirda ham yashayotgan tub aholi etnotoponim tarkibidagi etnonim nomlagan urug' vakillari ekanligini ko'rsatdi. Yuqoridagi fikrlardan kelib chiqib etnotoponim etimologiyasini aniqlash, dastlab, etnonim tarixini o'rganishdan boshlanadi deb hisoblash mumkin. Bu esa onomastik birliklar bir-biri bilan aloqador tarzda yuzaga kelishi va rivojlanishi – o'zgarishini ko'rsatadi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. Турсунов С., Муртазоев Б. Термизийларнинг илмий тафаккури. – Тошкент: "O'zbekiston", 2016. – B.3-4.
2. Bu haqda qarang: Эргашев А. Андижон вилояти этнотопонимларининг ареал-ономастик тадқиқи. Фил.фан.номз.дисс. – Тошкент, 2012. – Б.14

3. Отажонова А. Хоразм этнотопонимлари ва уларнинг луғавий асослари: Филол.фан. номз.дисс. – Тошкент, 1996. – В. 4.
4. Сагидуллин М.А. Тюркские этнонимы в русской топонимии Юга Тюменской области: Автореф.канд. филол. наук. – Москва, 2002. – С.12.
5. Сагидуллин М.А. Тюркские этнонимы в русской топонимии Юга Тюменской области: Автореф.канд. филол. наук. – Москва, 2002. – С.12
6. Kilichev B. Onomastika. – Buxoro, 2023. – В.83.
7. Maxmaraimova Sh. Hozirgi o‘zbek tili (leksikologiya). – Toshkent, 2021. – В.265.
8. Qorayev S. Toponimika. – Toshkent: O‘zbekiston faylasuflari jamiyati nashriyoti, 2006. – В.83.
9. Норбоев Н. 92 бовли ўзбек эли. – Тошкент, 1997 й. – В.21
10. Умаров И. Ўрта Осиёда туркий халқларининг этногенезиси (қўнғиротлар) 1-китоб. Қарши: “Насаф”, 2003. – Б.16.